

**2020-yil**

**2019 - 2020 – O'QUV YILIDA O'RTA TA'LIM  
MAKTABLARINING**

**6 - SINF O'QUVCHILARI UCHUN BOTANIKA FANIDAN  
MUSTAQIL SHUG'ULLANISH UCHUN**

**IMTIHON JAVOBLARI**

**BOTANIKA**

Telegram kanal: [@uzimtihon](https://t.me/uzimtihon)

Murojaat uchun: [uzimtihon\\_admin](https://t.me/uzimtihon_admin)

## Botanika

### 6-sinf

#### 1-BILET

##### **1. O'zbekiston va O'rta Osiyoda tabiiy holda o'sadigan yuksak o'simliklarning qancha turi ma'lum, ular haqida ma'lumot bering.**

Tabiatni rang-barang o'simliklar olamisiz tasavvur etib bo`lmaydi. Yer yuzida o'simliklar turi juda keng tarqalgan. Bu o'simliklarni jazirama cho`llardan tortib, to baland tog`lar cho`qqisigacha bo`lgan turli tuproq va iqlim sharoitida uchratish mumkin. O'zbekistonda tabiiy holda o'sadigan yuksak o'simliklarning 4500 turi, O'rta Osiyoda 8000 turi, Yer yuzida 500 000 dan ortiq turi borligi aniqlangan. Tabiatda o'simliklar uchramaydigan joylar nihoyatda kam. Yer yuzida o'simlik turari qancha ko`p bo`lmasin, barchasining ilmiy nomi bor. Olimlar ularni bir-biridan yaxshi ajratishadi. Ularni farqalashning o`ziga xos usullari bor. Har bir davlatning ma'lum bir hududida o`ziga xos o'simligi, fan tili bilan aytganda florasi bor. Jumladan, mamlakatimizda uchraydigan o'simliklarni boshqa bir davlat hududida uchratish qiyin. Lekin bu degani uchratib bo`lmaydi degani emas. O'simliklarni ma'lum bir sharoitdan boshqa bir sharoitga ko`chirib o'tkazgan holda, madaniylashtirish ishlari bilan "**Introduksiya-iqlimlashtirish**" fani shug`ullanadi. O'zbekiston hududida uchraydigan o'simliklarning yarmidan ko`prog`ini bir yillik o'simliklar tashkil qiladi. Qishloq xo`jaligida yetishtiriladigan madaniy o'simliklarning juda ko`pchiligi bir yillik o'simliklardir. Shuningdek, yurtimizda daraxt, buta, yarimbuta, ko`p yillik va ikki yillik o'simliklarni ham uchratasiz.

##### **2. Ushbu rasmdagi o'simliklarning o'zaro o'xshashliklarini taqqoslang.**



Bosh piyoz – pizyoz turkumiga mansub ko`p yillik o't. Gul poyasi 100 sm gacha yetadi, qalin, yarmidan pastki qismi shishgan. Barglari ham shishgan. To'pgul (soyabon) sharsimon, gullari zikh joylashgan. Gulbandi gulpo'rg'ondan bir necha marta uzun. Gulpo'g'oni yulduzsimon oqish yashil rangli. Changchisi 6 ta. Bosh piyoz may-iyunda gullab, mevasi iyulda pishadi. Dorivor qoqio't – ko`p yillik o't. Uni vohalardagi o'simlik o'sa oladigan har qanday yerda uchratish mumkin. Poyasi juda kalta. Gullari gulpoyaning uchida o'rnashgan savatchalarda joylashgan. Qoqio'tlarning mevasi - pista meva. Uning uchiga o'rnashgan popukchasi bor.

#### 2-BILET

##### **1. Yer yuzida tabiiy holda o'sadigan o'simliklarning hayotiy shakllari haqida ma'lumot bering.**

O'simliklarning tashqi muhitga har xil shaklda moslashishi **hayotiy shakl** deyiladi. Yer yuzidagi barcha o'simliklarning quyidagicha hayotiy shaklari mavjud:

**Daraxtlar** – tanasi yog'ochlashgan, asosan, bitta yo'g'on tanali baquvvat ildiz va keng shox-shabbali, baland bo'yli ko`p yillik o'simliklardir. Bular guli, mevasi, poyasining eni, bo'yli, shox-shabbasi va bariglari bilan bir-birdan farq qiladi. Masalan: olma, o'rik, yong'oq va shaftolining *shox-shabbasi* yoyiq. Qarag'ay va terakniki *g'uj va tik*. Shamshod va sadaqayrog'ochniki *sharsimon* bo'ladi. **Butalar** – bir nechta yog'ochlashgan poya- tanaga ega ko`p yillik o'simlik. Ildizdag'i qo'shimcha kurtaklardan yangi yosh

novdalar o'sib chiqadi. Bularga – irg'ay, singirtak, na'matak, zirk, bodomcha, uchqat, anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kiradi.

**Yarimbutalar** – poyasining pastki qismi yog'ochlashgan, yuqori yashil qismi qishda sovuq urib ketadigan ko'p yillik o'simlik. Cho'llarda keng tarqqalgan izen, keyreuk, teresken, sarsazan va shuvoq. Ko'p yillik

o'tlar – yerusti qismi qishda qurib, o'sish kurtaklari tuproq ostida qishlaydigan o'simliklar. Bularga beda, ajriq, g'umay, sachratqi, piskom piyozi, kiyiko't, sallagul, qoqio't, shirinmiya, iloq, lola, qamish, andiz, yalpiz, kovrak, gulsafsar kiradi. **Ikki yillik o'tlar** – birinchi yili urug'dan ko'karib chiqib, vegetativ organlar hosil qiladigan, ildizi va barglarida oziq moddalar to'playdigan o'simliklar. Ikkinci yili gullab meva tugadi. Bularga lavlagi, sabzi, sholg'om, sigirquyruq va h.z. kiradi. **Bir yillik o'tlar – bir yil ichida** urig'idan unib chiqib, o'sadi, gullab meva tugib, o'z hayotini tugatadi. Bularga yovvoyi oq sho'ra, jag'-jag'(achambiti), machin, qora ituzum, baliqko'z, madaniy g'o'za, bug'doy, arpa, zig'ir, yeryong'oq, mosh, no'xat, sholi, pomidor, qalampir, qovun, tarvuz, rayhon va h.z. kiradi.

**2.** Rasmda ko'rsatilgan daraxt turlarini aniqlang va ular haqida qisqacha ma'lumot bering.



**Baobab**



**Sadaqayrag'och**



**Qoraqat**



**Limon**

**Baobab**-hayotiy shakli daraxt. Afrikaning savannalarida o'sadi. 4000-5000-yil yashashi mumkin. Panjasimon murakkab barglari yilning issiq faslida to`kiladi. Guli yirik (diametri 20 cm), oq. Baobabning bo`yi 10-12 m kelsadaa, shox-shabbasi kata (aylansi 45 m) maydonni egallaydi. Tanasining diametric esa 4-10 m ga yetadi

**Sadaqayrag'och**-hayotiy shakli daraxt. Shox-shabbasi sharsimon shaklda. Asosan manzarali o'simliklar sinfiga kiradi. Yorug`sevar, quruqlikka chidamli, ammo sovuqqa chidamsiz o'simlik. Tog`larning 1500 m bo`lgan balandliklarida ham uchratish mumkin. Urug`I va ildiz bachkilari orqali ko`paytiriladi.

**Qoraqat**-hayotiy shakli madaniy buta. Mevasi-rezavor meva. Vatani-Yevropa. Mevasi avgust-sentabrda birin-ketin pishadi. Ko`chati o'tkaazilgach 2 yili hosil beradi. Ildizi, qalamchasi va ildiz bachkisidan ko`paytiri ladi.

**Limon**- hayotiy shakli madaniy buta. Sitruslar turkumiga kiradi. Vatani- Janubiy va Janubiy-sharqaiy Osiyo. Yovvoyi holda o'sishi aniqlanmagan. Hozirgi kunda uy sharoitlarida ham o`stiriladi. Shox-shabbasi yoyiq. Mevasi tuxumsimon, ba`zan dumaloq. Gullari ikki jinsli, oq, xushbo'y. Limon qalamchasidan va payvandlash yo`li bilan ko`paytiriladi.

Ushbu imtihon javoblarini olish uchun telegramdan [@uzimtihon\\_admin](https://t.me/uzimtihon_admin) ga yoki telegram orqali **+998 99 394 2820** raqamiga bog'laning.

Imtihon biletini narhi

**8 ming so'm**

To'lov klik, payme yoki paynet\* (tel nomerga emas) orqali

**BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI**

Telefon qilinganda yoki SMS yozilganda javob bermasligim ehtimoli yuqori

Javoblar 2020-yil savollari asosida tuzilgan. 30ta biletga javoblarni o'z ichiga oladi. To'lov qilishdan oldin admin bilan bog'laning.